



Nyu-York yangi muhojirlari uchun ma'lumotnoma

Barcha Nyu-York aholisi qo'rqmasdan g'amxo'rlik va yordam olishi mumkin

IMMIGRATSIYA YUZASIDAN HUQUQIY YORDAM

Immigratsiyaga doir bepul, xavfsiz huquqiy yordam olish uchun ActionNYC xizmatiga **800-354-0365** raqami orqali dushanbadan jumagacha, soat 9:00 dan 18:00 gacha bepul qo'ng'iroq qiling. Faqat ishonchli, litsenziyaga ega advokat yoki vakolatli vakildan yordam oling.



MUHOJIR OILALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH

Sog'liqni saqlash

- COVID-19 uchun vaksina, g'amxo'rlik, test yoki muolaja olish immigratsiya maqomingizga ta'sir qilmaydi. nyc.gov/covidtest manziliga orqali sizga yaqin test oluvchi saytni toping yoki **212-COVID19 (212-268-4319)** raqamiga qo'ng'iroq qiling.
- Bepul tibbiy sug'urtalarga, jumladan, bepul tarif rejalariga ro'yxatdan o'tish uchun nyc.gov/getcoverednyc manziliga kiring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling. Agar tibbiy sug'urta olish huquqiga ega bo'lmasangiz, NYC Care arzon yoki bepul xizmatlarni kafolatlaydi. Immigratsiya maqomi ahamiyatga ega emas. **646-NYC-Care (646-692-2273)** raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki nycare.nyc saytiga kiring.
- Stress his qilyapsizmi yoki tashvishlanyapsizmi? Sir tutiladigan tarzda yordam olish uchun NYC Well maslahatchisi bilan suhbatlashing. nyc.gov/nycwell manziliga kiring yoki **888-NYC-Well (888-692-9355)** yoki **65173** raqamiga WELL so'zini yuboring.

Ta'lim

- Nyu-Yorkdagi 4 yoshli bolalarning barchasi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnashi va 21 yoshga to'lgunga qadar davlat maktablarida o'qishi mumkin. Ayrim tumanlarda 3 yoshli bolalar uchun ham "3-K" mavjud bo'lishi mumkin. Ro'yxatdan o'tish uchun schools.nyc.gov/enrollment manziliga kiring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling.
- We Speak NYC bilan ingliz tilini bepul o'rganing. O'rta darajadagi ingliz tili o'rganuvchilari onlayn muloqot kurslariga ro'yxatdan o'tish uchun wespeaknyc.cityofnewyork.us manziliga kirishi mumkin.



Favqulodda holatda oziq-ovqat

- Nyu-York shahri bo'yab hududlarda bepul vegetarian, halol va dindor yahudiylar yesa bo'ladigan taomlar mavjud. Nyu-York aholisi uchun yetkazib berish imkoniyatlari mavjud. Tafsilotlar uchun nyc.gov/getfood manziliga kiring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling va "Get Food", deng.

HAMJAMIYATLARIMIZNI XAVFSIZ SAQLASH

Jamoat xavfsizligi

- Qonunga ko'ra NYPD jinoyatlar qurbonlari, guvohlar yoki yordam so'raydigan boshqa odamlarning immigratsiya maqomi haqida so'rashi mumkin emas. Jinoyat qurboni yoki guvohi bo'lgan har kim **911** raqamiga qo'ng'iroq qilishi kerak.

Kamsitishlarga qarshi himoya

- Nyu-York shahrida irqiga, diniga yoki immigratsiya maqomiga qarab biror kishiga nisbatan kamsitish, qasos olish va ta'qib qilishlarga yo'l qo'yilmaydi. Ta'qib yoki kamsitish haqida xabar berish uchun Nyu-York shahar Inson huquqlari komissiyasiga **212-416-0197** raqami orqali qo'ng'iroq qiling.

IDNYC

- IDNYC - 10 yosh va undan yuqori barcha Nyu-York shahri aholisi uchun bepul hukumat tomonidan taqdim etilgan fotosuratli ID karta bo'lib, keng turdagi xizmatlar va chegirmalardan foydalanish imkoniyatini beradi. IDNYC arizachilarining axborotlari maxfiy hisoblanadi. Immigratsiya maqomi ahamiyatga ega emas. nyc.gov/idnyc manzili kirish yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali onlayn yangilang yoki qabul uchun ro'yxatdan o'ting.

Oiladagi zo'rovonlikka qarshi himoya choralari

- Agar zo'rovonlikka duch kelsangiz, Shahar meriyasi sizga yordam berishga tayyor. nyc.gov/nychope manziliga kirishingiz yoki Nyu-York shahrining Oiladagi zo'rovonlik bo'yicha **800-621-HOPE** tezkor raqamiga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.



SIZ HUQUQLARGA EGASIZ

ICE (Immigratsiya boshqarmasi) bilan huquqlaringizni bilib oling

- Shahar meriyasi immigratsiya nazoratini amalga oshirmaydi. Agar sizga Federal immigratsiya boshqarmasi xodimlari murojaat qilsa, huquqlarga egasiz. Bepul va xavfsiz immigratsion huquqiy yordam olish uchun nyc.gov/knowyourrights manziliga kiring yoki **800-354-0365** ActionNYC xizmatiga murojaat qiling.

Ijarachi huquqlari

- Agar siz uy ijaraga olgan bo'lsangiz va ko'chish va ijaraga beruvchi bilan bog'liq biror muammoga duch kelsangiz, bepul huquqiy yordam uchun nyc.gov/tenantprotection manziliga kiring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling va "tenant helpline", deng. Uy-joyga doir qo'shimcha yordam uchun nyc.gov/housing manziliga kiring.

Ishchilarning huquqlari

- Siz Nyu-York shahri qonunchiligiga binoan haq to'lanadigan bemorlik ta'tili olishga haqlisiz. Immigratsiya maqomi ahamiyatga ega emas. Ishlash ruxsatiga ega bo'lgan Nyu-York muhojirlari ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega. Resurslar uchun nyc.gov/workers manziliga kiring yoki **212-436-0381** raqamiga qo'ng'iroq qiling.

Ask MOIA tezkor raqami

- Agar immigratsiya yoki shahar xizmatlaridan qanday foydalanish yuzasidan savollaringiz bo'lsa, ona tilingizda yordam mavjud. Shahar meriyasining Immigratsiya masalalari bo'yicha vakolatxonasi (MOIA) dushanbadan jumagacha, soat 9:00 dan 17:00 gacha **212-788-7654** tezkor raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki askmoia@cityhall.nyc.gov manziliga elektron xat yozing.

